

## MAIN FACTORS OF SOCIAL TOLERANCE AND SCIENTIFIC APPROACH

Nodira Julanovna Kunisheva

Angren University Senior Lecturer, Department of

“Humanities and Social Sciences”

n.kunisheva@auni.uz

### **Abstract:**

This article discusses the main factors and scientific approach to social tolerance.

**Keywords:** “Social tolerance”, globalization, empathy, social and cultural initiatives, discrimination, integration.

### **Introduction**

#### **IJTIMOY BAG‘RIKENGLIKNING ASOSIY OMILLARI VA ILMIY YONDOSHUV**

Nodira Julanovna Kunisheva

Angren universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrası

katta o’qituvchisi

n.kunisheva@auni.uz

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada ijtimoiy bag’rikenglikning asosiy omillari va ilmiy yondoshuv haqida so’z yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** “Ijtimoiy bag’rikenglik”, globallashuv, empatiya, Ijtimoiy va madaniy tashabbuslar, diskriminatsiya, integratsiya.

**Ключевые слова:** «Социальная толерантность», глобализация, эмпатия, Социальные и культурные инициативы, дискриминация, интеграция.

"Ijtimoiy bag'rikenglik" tushunchasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uni har tomonlama tushunish uchun fanlararo yondashuvni talab qiladi. Ijtimoiy bag'rikenglikni o'rganish turli nazariy yondashuvlarni, o'lchash usullarini, bag'rikenglikka ta'sir etuvchi omillarni, uni shakllantirish va mustahkamlashning amaliy jihatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Keling, ijtimoiy tolerantlikni o'rganish bilan bog'liq asosiy ilmiy-nazariy masalalarni ko'rib chiqaylik. Ijtimoiy bag'rikenglik ko'plab jihatlarni qamrab oladi, jumladan:

1. Diniy bag'rikenglik: turli diniy e'tiqod va amaliyotlarga hurmat.
2. Etnik bag'rikenglik: etnik xilma-xillikni qabul qilish va hurmat qilish.
3. Madaniy bag'rikenglik: turli madaniy an'analar va urf-odatlarini hurmat qilish.
4. Gender bag'rikenglik: jinslar tengligi va gender o'ziga xosligini tan olish.

Shu o'rinda ijtimoiy bag'rikenglikni aniqlashning turli nazariy yondashuvlari mavjud:

Birinchi yondashuv bu falsafiy yondashuv hisoblanadi, bunda bag'rikenglik axloqiy kategoriya sifatida ko'rib chiqadi va izohlaydi.

Ikkinchi yondashuv sotsiologik yondashuv hisoblanadi, ijtimoiy bag'rikenglikni ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalarga ta'sir etuvchi hodisa sifatida o'rganiladi.

Uchinchi yondashuv psixologik yondashuv bo'lib, bag'rikenglikni rivojlantirishga yordam beruvchi psixologik mexanizmlar va omillarni tahlil qilish jarayonini qamrab oladi.

Fanda ijtimoiy bag'rikenglikni o'lchash usullari mavjud. Sifatli tadqiqot usullari odamlarning bag'rikenglik haqidagi tasavvurlari va tajribalarini tushunish imkonini beradi, keng tarqalgan usullardan biri intervyu hisoblanadi. Turli ijtimoiy guruhlar bilan chuqur suhbatlar o'tkazish odamlarda bag'rikenglik to'g'risidagi fikr mulohazalarini va bilimlarini oshishiga olib keladi. Yana bir keng tarqalgan usullardan biri zamonaviy fokus-guruhlarda ishlash hisoblanadi. Bu usul bag'rikenglikning turli jihatlarini aniqlash uchun kichik guruh muhokamalari orqali oydinlashtiradi ma'lumotlarni. Kuzatish metodi ham ancha keng tarqalgan, ommapop usullardan hisoblanib, tabiiy sharoitlarda inson xatti-harakatlarini o'rganishda yordam beradi. Miqdoriy usullar ob'ektiv ma'lumotlarni olish va qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.<sup>1</sup>

So'rovlar va anketalar: Aholining bag'rikenglik haqidagi qarashlari va munosabatlari bo'yicha ma'lumotlar to'plashda va tahlil qilish imkonini beradi. Eksperimental tadqiqotlar esa bag'rikenglik darajasiga turli omillar ta'sirini

o'rganish uchun tajribalar o'tkazish va statistik tahlil: ma'lumotlarni qayta ishlash va sharhlash uchun statistik usullardan foydalanishda qo'l keladi.

Shu o'rinda ijtimoiy bag'rikenglikka ta'sir etuvchi omillar haqida ham so'z ketar ekan asosiy ta'sir etuvchi omillardan biri ijtimoiy-iqtisodiy omillar hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohaning taraqqiy etib borishi bevosita ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy-diniy bag'rikenglikning o'zgarib borishiga olib keladi.

Bag'rikenglikning shakllanishida quyidagi omillar o'rni muhimdir.

1. Ta'lim sohasi ijtimoiy munosabatlar to'g'ri shakllanishi va barqarorlikni qaror topishida alohida o'rin egallaydi.

2. Iqtisodiy omil ijtimoiy farovonlikni ta'minlanishi aholi o'rtasida bag'rikenglik darajasining oshishiga sabab bo'ladi.

3. Madaniy omillar. Madaniy xilma-xillikning shakllantirishga e'tibor berish bag'rikenglikni mustahkamlashda, madaniyatlararo aloqalar va almashinuvlarning oshishida o'rni beqiyosdir.

4. Psixologik omillar. Psixologik omillar bag'rikenglik darajasiga ta'sirida shaxsda shaxsiy xususiyatlar empatiya<sup>11</sup> va tajribaga ochiqlik kabi xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

5. Oilaviy ta'lim boshqalarga bag'rikenglik munosabatida bo'lishni shakllantirishda tarbiya va oilaviy qadriyatlar orqali kirib boradi.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy tolerantlik madaniyatlararo o'zaro ta'sir va almashinuvni kuchaytiradi. Bunga turli elatlarning madaniyatlararo hamkorligi va ta'sir etishi ham ijtimoiy barqarorlik va bag'rikenglik munosabatlarining rivojlanishi, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda ijtimoiy hayotni muvofiqlashtirish va tartibga keltirishda globallashuv muhitining tobora izchillashib borayotgani, har qanday soha globallashuv ta'siri ostida ekanligini unutmaslik lozim. Global tashabbuslar bag'rikenglik va inson huquqlarini rag'batlantirishga qaratilgan va bu sohada xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar diqqatga loyiqdir. Jumladan, BMT tomonidan bag'rikenglikni targ'ib qilish va irqchilikka qarshi kurashi, ijtimoiy va diniy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan birqator dasturlari qabul qilingan.

---

<sup>1</sup> Mirraximova G.Sh. Ученый XXI века. 2016 №7 (20) 60 стр УДК 159.9.()

Empatiya (hamdardlik, ichdan his qilishlik) deganda konkret shaxsni boshqa odamlarning emotsional-hissiy holatlarini mazkur davrda anglash (tushunish), ularning ichki va tashqi kechinmalarini (favqulotdagi vaziyatini) shaxsan o'zida aks ettirish qobiliyati (o'quvchanligi) aynan shu voqelikni o'zida sinab ko'rish tushuniladi.

Xalqaro nodavlat tashkilotlar ham ijtimoiy bag'rikenglikni targ'ib qilishdagi o'rnini katta hisoblanadi. Ijtimoiy bag'rikenglikni mustahkamlashning amaliy jihatlari ishlab chiqilgan. Bag'rikenglikni mustahkamlash va uning muhimdorligi to'g'risida ma'rifiy tadbirlar tashkil etilishini kuzatishimiz mumkin.

**Ijtimoiy va madaniy tashabbuslar** Ijtimoiy bag'rikenglikni targ'ib qiluvchi tadbirlar va loyihalarni tashkil etish kabilar bilan kengaytiriladi. Madaniy festivallar va tadbirlarni o'tkazish : madaniyatlararo o'zaro ta'sirni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek fuqarolik tashabbuslari bag'rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan fuqarolik jamiyatining loyiha va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali namayon bo'ladi.

Jamiyatda ijtimoiy bag'rikenglikni mustahkamlashda davlat va xalqaro siyosatning o'rnini esa quyidagi xosilalarda tahlil qilamiz.

,ga qarshi qonunchilik: bunda ozchiliklar va zaif guruhlarining huquqlarini himoya qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin.

Integratsiya siyosati: migrantlar va etnik ozchiliklar uchun integratsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. "Integratsiya"(integratio) atamasi ham lotin tilidan kirib kelgan bo'lib "qismlarni butunlik tarkibida birlashtirish" ma'nosini ifodalaydi. Mashhur "Oxford English Dictionary" lug'atida yuqoridagi ta'rif ilk bor 1920 yilda ishlatilganligi ma'lum qilinadi.<sup>2</sup>.

Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlar to'g'risida mutaxassislar orasida yagona qarashlar konsepsiyasi mavjud emas. Integratsiya mavzusida teran tadqiqotlar olib borgan va integratsiya nazariyasini rivojlantirishga ulkan xissa qo'shgan B.Balasha, iqtisodiy integratsiyaga yagona ta'rif berishning o'rniga, uni bo'lib ta'riflashni afzal ko'rgan. Unga ko'ra, eng oddiydan eng ilg'or bosqichigacha bo'lgan integratsion jarayonlar quyidagicha tizimlashtirilgan: savdoda to'suvchi unsurlarni bartaraf qilinishi savdo integratsiyasini, mamlakatlararo faktor harakatlariga erkinlik berilishi - faktor integratsiyasini, milliy iqtisodiy siyosatlarni xalqaro iqtisodiy aloqalarning foydasiga

---

<sup>2</sup> MACHLUP,F."A History of Thought on Economic Integration" Economic Integration, World Wide, regional, sectorial (Ed.f. Machlup), The Macmillan Press Ltd. London, 1978, 61 p.

uyg'unlashtirilishi - siyosiy integratsiyani va nihoyat ularning birlashishi natijasida shakllangan - to'liq integratsiyaga ajratgan.

Ijtimoiy bag'rikenglik bo'yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlar fanlararo yondashuvni, jumladan, falsafiy, sotsiologik, psixologik va madaniy jihatlarni talab qiladi. Bag'rikenglikni rag'batlantirishning omillari, o'lchash usullari va amaliy jihatlarni o'rganish samarali siyosat va dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi, Masalan, ijtimoiy bag'rikenglik ko'p millatli va ko'p dinli jamiyatlarda uyg'un yashashning muhim elementidir. Ijtimoiy bag'rikenglikni ta'minlash kompleks yechimlarni talab qiluvchi qator muammolarga duch keladi.

Bag'rikenglik - bu odamlardagi farqlarni, ularning e'tiqodlari, urf-odatlarini va xatti-harakatlarini hurmat qilish va qabul qilish qobiliyati. Globallashuv va migratsiya jarayonlari turli va ko'p millatli jamiyatlarni vujudga keltirayotgan zamonaviy dunyoda bag'rikenglik tinch-totuv yashash va barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tolerantlik tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiya. [Elektron resurs]: Kirish rejimi: <http://www.un.org/russian/documen/declarat/toleranc.htm>
2. Drobijeva L. M., Xomyakov M. B. Ur dasturini amalga oshirish natijasida bag'rikenglik g'oyalarini o'rganish va o'rgatishda yangi yondashuvlar. MION. [Elektron resurs]: Kirish rejimi: [http://www.iriss.ru/display\\_analyticsitem?id=000100000297](http://www.iriss.ru/display_analyticsitem?id=000100000297)
3. Qisqacha psixologik lug'at. M., Politizdat, 1985 yil.
4. Inson huquqlari, bag'rikenglik, tinchlik madaniyati //Hujjatlar. M., 2002 yil.
5. Rostislavova O. A. Bag'rikenglik insonparvarlik qadriyati sifatida // SPO. – 2006. – 4-son.
6. Sulteev D. Turli xillarning birligi (Xalqaro bag'rikenglik kuniga) // Maktab o'quvchilari tarbiyasi. – 2008. – 9-son.
7. Ko'p millatli ta'lim muhitida bag'rikeng shaxsni shakllantirish: darslik. qo'llanma / ed. V. N. Gurova. M.: Rossiya Pedagogika Jamiyati, 2004.
8. Mirraximova G.Sh. Ученый XXI века. 2016 №7 (20) 60 стр УДК 159.9.(.)
9. MACHLUP,F."A History of Thought on Economic Integration" Economic Integration, World Wide, regional, sectorial (Ed.f. Machlup), The Macmillan Press Ltd. London, 1978, 61 p.